

**YOSHLAR TA'LIM MIGRATSIYASINING JAMIYATIMIZDAGI
O'RNI*****Beknazarova Madinaxon Abdumalik qizi****Osiyo Xalqaro Universiteti magistri*Beknazarovamadina4484@gmail.com**+998881264484**

Xorijiy ish beruvchilarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlariga asosan professional ta'lim muassasalarida o'qitiladigan kasblar (mutaxassisliklar) hamda chet tillarini bilish darajasiga qo'yilgan talablar bo'yicha buyurtmalarni shakllantirish; Xorijida ishlash istagi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini ish beruvchilar tomonidan tanlab olish jarayonlarini tashkil etish; O'quv kurslari tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalarini xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi, madaniyati va muassasalari va xorijiy ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash hamda xorijiy mutaxassislarni ta'lim ta'lim jarayoniga jalb qilish; Kasbiy ko'nikmalar bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazish hamda yoshlarning xorijiy kompaniya yoki tashkilotlarda amaliyot va stajirovkalar o'tashini tashkil etish kabi chora-tadbirlar olib borilayotgani va masalalar qonunchilik xujjatlari bilan belgilab qo'yilgani, O'zbekistonda yoshlar ta'lim migratsiyasiga katta e'tibor berilayotganining dalilidir. Bu masalar bilan alohida markaz ham shug'ullanadi. Markaz o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan bevosita Agentlik rahbarligida amalga oshiradi;

Markazning 16 shtat birligini saqlash bilan bog'liq xarajatlar Agentlik tomonidan ko'rsatilgan pulli xizmatlardan tushgan mablag'lar xisobidan amalga oshiriladi; Markaz ushbu qarorga muvofiq tashkil etiladigan o'quv kurslari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi " Oila " ilmiy-amaliy markazining O'zbekiston yoshlar Ittifoqi Markaziy



Kengashi qoshidagi Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish markazi negizida ta'limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar uchun muloqot maydoniga aylanadigan, tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda ish olib boruvchi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi qoshida Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish Respublika markazi etib qayta tashkil etish to'g'risidagi takliflari qullab –quvvatlandi. Xulosa qilib shuni aytish joizki, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari, hududlardagi yoshlar va professional ta'lim muassasalari o'quvchilarning kasb egallashga hamda chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida turli xil say-harakatlar olib borilmoqda. Bu esa yoshlar o'rtasida ta'lim migratsiyasining xususiyatlarini oshirad.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A. Karimov, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning hosiylari haqida fikr bildirib: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"1 - deb ta'kidlaganlar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlar har doim ham bir tekisda silliq, risoladagidey kechavermaydi. Uy-ro'zg'or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi, ayrim xolatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qaramaqarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo'ladi. Bu xolatlar albatta farzandlar tarbiyasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Bu esa tarbiya jarayonida ijtimoiy normalarni amal qilishi yoki buzilishida nomoyon bo'ladi. Ayni shu masalalar mavzuimizning dolzarbligini belgilaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov Sardor “Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformasiyasi.
 2. G‘oziyev.E. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi) o‘quv qo‘llanma -Toshkent. “O‘qituvchi” 1994.
 3. “ Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida * 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son4.[https://parlament.gov.uz/uz events/ comminttee/](https://parlament.gov.uz/uz%20events/%20comminttee/)
 4. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi) o‘quv qo‘llanma-Toshkent, ‘ O‘qituvchi ‘ 1994
 5. Sh. Xalilova ‘ Talimda boshqaruv psixologiyasi ‘ Toshkent-2011.
- Alimov Sardor “ Aholi migratsiyasi ijtimoiy- axloqiy muhit transformasiyasi.